

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AYOLLAR KIYIMINI  
KOSTRUKSIYALASH VA MODELLASHTIRISH KO'NIKMALARINI  
SHAKILLANTIRISH METODIKASI

**Xolmatova Mashhura Anvarovna**

*Andijon davlat universiteti*

*Umumtexnika fanlari va mehnat ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Rahimova Gulassal Mutalipovna**

*Andijon shahar 3-son kasb*

*hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola umumta'lim maktablarida ayollar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish ko'nikmalarini shakillantirish metodikasi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *modellashtirish, metodika, konstruksiyalar, assortiment.*

Hozirgi vaqtda hukumatimiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, tikilgan buyumlar, jumladan kiyim-kechaklar assortimenti strukto'rasini ya'nada takomillashtirish, sifatini yaxshilash, tikuvchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vazifalarini ilgari surdi.

Bu vazifalarni muaffaqiyatli amalga oshirish uchun yengil sanoatning tikuvchilik tarmog'iga qarashli korxonalarni texnik jihatdan qayta qo'yiladiganlantirish va qayta qurish yangi kompleks–mexanizasiyalashtirilgan jarayonlarni yangi texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish, yangi materiallar, xususan qistirmabop materiallardan foydalanish, shu bilan birga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun kiyim detallarining konto'rlarini, baza konstruksiyalarini unifikasiyalash ishlarini yo'lga qo'yish talab qilinadi.

Tayyor kiyim yuqori sifatli va uni tikish (ishlab chiqarish) iqtisodiy samarali bo'lishi uchun kiyimni loyhalash vaqtidayok bunga zamin yaratiladi. Tikuvchilik sanoati xodimlari ayni kunda loyhalash vaqtida bo'lg'usi buyumning sifatini yaxshilash imkoniyatlarini izlaydilar va topishga harakat qiladilar.

Kiyimni konstruksiyalash uni loyhalashning eng muhim qismi va murakkab ijodiy ish bo'lib, badiiy konstruktorlik hamda texnik vazifalarning yechimini qamrab oladi.

Kiyimni konstruksiyalash deganda, odatda kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek ularni o'zaro ulab-tikib, muayyan razmerdagi va formadagi yaxlit buyum holatiga keltirish usullari,

vositalari tushuniladi. Turli xil va modeli kiyimning konstruksiyasi uning va tikish texnologiyasining takomillashuviga hamda modaga qarab o'zgarib to'radi. Bu hol yangi modeldagi kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishni bir muncha murakkablashtiradi ishni yengillashtirish uchun tipovoy va baza konstruksiyalaridan keng foydalaniladi. Kiyim kechakni loyihalashtirish vaqtida konstruksiyaning texnologik (ishlov berish) jihatdan qulayligi asosiy samaradorlik elementi hisoblanadi.

Texnologik qulaylik deganda, buyum konstruksiyasining sifat ko'rsatkichlaridan birini ifodalovchi xossalari majmui tushuniladi. Kiyimning texnologik jihatdan qulay konstruksiyasi iste'molchilarning hamda korxonaning talablariga juda mos keladi. Kiyim detallariga texnologik ishlov berish va ularning yig'ishning eng murakkab metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini tug'diradi. Konstruksiyaning texnologik qulayligiga erishishda loyihalash bosqichlarining hammasi o'z ulushini qo'shadi.

Kiyimni loyihalashda hal qilinadigan asosiy masalalar forma va uni hosil qila bilishdan iborat. Hozirgi kiyimlar asosan tukilgan gazlamadan trikotaj, charm, mo'yna va boshqa materiallardan tikiladi. Kiyimga forma berish usullari ishlatiladigan gazlamaning xossalarini nazarda to'tib tanlanadi. Zamonaviy kiyimlarga yassi tukilgan materiallar, xususan forma hosil qilishning uchta asosiy metodini va ularning kombinasiyasini kullashga imkon beradigan gazlamalar ishlatiladi.

Kiyim formasi konstruksiyasi bo'yicha, ya'ni uni qomatga va gavdaning o'lchamlariga mos keladigan detallarga bo'lish yo'li bilan hosil qilinadi. Yuzaning egrilik radiusi kichik bo'lgan hollarda andozaga qo'shimcha konstruktiv elementlar kiritilishi lozim, bunday element ko'pincha vitochqada iborat bo'ladi.

Gazlamaning draplanuvchanligiga va to'rsimon tuzilishidagi materialning sirpanchiqlik (harakatlanuvchanlik) xossasiga asoslanib, kiyimga shakl berish, ya'ni forma hosil qilish metodi kiyimlarni bichib tikish usullarini kelib chiqishidan oldin kullangan. To'rsimon tuzilishdagi gazlamaning sirpanchiqligi aniqrogi harakatchanligidan aslida qiyasiga bichish usulidan keng foydalaniladi, biroq kiyimni kiygan vaqtda materialning tanda va arqoq iplari orasidagi burchaklar egri yuzalarda qayta taksimlanib, o'zaro mos holda joylashuvini hisobga olgan holda bu xususiyatdan odatdagicha, bichish usullarida ham foydalanilmoqda. Forma hosil qilishning bu metodida ko'pgina choklarga va vitochkalarga deyarli xojat qolmaydi, boshqacha aytganda, ular yo qisman, yoki butunlay yo'qotiladi.

Kiyim tikiladigan materiallarning draplanuvchanligi deganda, ularning egiluvchanlik, blanglash xususiyati va harakatchan yengil burmalar hosil qilib,

xilpillangan forma kasb etish xususiyati tushuniladi. Bu metod kiyimlarning ancha murakkab formalarini hosil qilishga imkon berganligidan asosan, Xotin-qizlar ko'ylaklarini loyihalashda qo'llaniladi.

Kiyim kechakka nam issiqlik ishlovi berilganda, ya'ni suv purkab dazmollanganda materialning dag'al strkto'rasi go'yo o'zgaradi (iplar, tolalar cho'ziladi, taranglashadi, siqiladi, iplar sistemalari qiyshadi), materialning molekulyar sitemasi o'zgardi. Sintetik tolalardan tukilgan gazlamalar paydo bo'lgunga qadar materiallarning suv purkab dazmollash (nam issiqlik ishlovi berish) tikilgan kiyimga hajmiy shakl berishning asosiy metodi hisoblanib, ularni to'rlantirish imkoniyatini tug'diradi. Dazmollash chala fabrikat shaklini o'zgarishiga qarab, quyidagi to'rlarga ajratiladi: Dazmollab, cho'zib detallar o'lchamlarini kattalashtirish Suv purkab dazmollab detallar razmerini kichraytirish Choqlarni bir tomonga yotqizib dazmollash Choqni ikki tomonga qayirib dazmollash Dazmollab chok solish. Dazmol teggan joydagi yaltiroqni bug'lab ketkazish Presslash. Konstuktiv metod tikuv materiallarning shakliga bog'liq bo'lmaganligidan universal metod hisoblanmoqda va yuqorida aytib o'tilgan metodni siqib chiqarmoqda. Kishining badanini atrof muxitning salbiy ta'siridan ximoyalaydigan libos kiyim kechak deb ataladi. Kiyim kechak insoniyat tarakkivyotini ilk bosqichlarida paydo bo'lgan.

Kiyimning materiali, formasi va bichimiga qarab, kishining to'rmush tarzi, yashaydigan iqlimiy sharoiti, uning qanday sinf va tabaqaga mansubligi madaniy saviyasi, moddiy farovonligi to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Kiyimning hamma qismlari (pidjak, shim, jiletka) poyabzal va boshqa qo'shimchalar bilan birga kostyumni tashkil etadi. Kostyum to'rli mamalakatlar halklari va jamiyatlari o'ziga xos tarzda, taraqqiy qilishlarini, milliy kiyofasini aniq aks ettiradi, shuningdek, kishi shaxsini harakterlaydi. Garderob deganda, bir kishiga yoki bir oilaga tegishli jami kiyim –kechak tushuniladi. Kiyimning yangi formasini eng avvola uning bichimi (silueti) belgilaydi.

Bichim (silueti) kiyim formasining tekislikdagi ifodasi. Kiyimning asosiy bichimlari quyidagilardan iborat. beli yopishib to'radigan bichimli kiyim : gavdaga yopishib to'radigan bichimli kiyim; beli qisman yopishib to'radigan bichimli kiyim; to'g'ri bichimli kiyim; keng bichimli kiyim.

Konstruksiyaning elementlar doimo o'zgarib to'radi. Masalan andaza yelkaning sathi (qiyaligi) tabiiy balandalshtirilgan va pasaytirilgan bo'lishi, yelkaning uzunligi normal uzaytirilgan yoki qisqartirilgan yeng o'mizining chuqurligi oshirilgan normal va kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Bel chizig'i kiyimning bichimini belgilab beradi; bel chizig'i to'g'ri, gavdaning qisman yopishib to'radigan va keng bo'lishi mumkin.

Kiyimning etagi toraytirilgan, normal va kengaytirilgan bo'ladi. Kostyumning bichimi yelkaning qiyalik darajasi, qomatiga yeng o'mizining ko'rinishiga, bel chizig'ining past va balandligiga va buyum etagining keng va Kiyimning asosiy bichimlari beli yopishib turadigan bichimli gavdaga yopishib turadigan bichimli to'g'ri bichimli kiyim beli qisman yopishib turadigan bichimli keng bichimli kiyim torligiga bog'liq. Kostyumning formasi konstruktiv yechimlar natijasida va kostyumning ayrim qismlarini birlashtirish oqibatida vujudga keladi. Formaning geometrik ko'rinishining o'zgarishi bichimning o'zgarganligidan dalolatdir; forma shakl jihatdangina emas balki hajmiy (kattaligi) jihatidan ham o'zgardir.

Bolalar kiyimi kattalar kiyimining nusxasi bo'lib, barcha detallar takrorlanadi. Bolalar kiyimi hozirgi ko'rinishini kasb etgunga qadar uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tadi. Bolalar kiyimini loyhalashda har bir yosh guruppasiga mansub bolalarning gavda tuzilishidagi o'ziga xos jihatlar hisobga olinadi. Ishlab chiqarishning to'rtli bosqichlarida hisoblash texnikasini kullash kiyimning detallari va uzellarini kodlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Mahsulot Butunittifoq klassifikatori MBK da tikilgan kiyimlarning o'nli sistemasidagi egasiz klassifikasiyasi qo'llaniladi. Tikilgan kiyimlar MBK da mustakil klassga ajratilib ,85 nomeri bilan bo'linadi. O'zaro bog'liq shifrlar majmui kod mahsulotning qisqartirilgan shartli belgisi hisoblanadi. MBK da kodlashning o'nli sistemasi qabul qilingan. Har qaysi belgini ta'riflash uchun muayyan miqdorda o'nli razryadlar ajratilgan. Kodning 1va 2 razryadlari «Tikilgan buyumlar» klassi.

3- razryad – kenja klass. Buyumning assortiment bo'yicha klassifikasiyasi: 1-ustki kiyim; 2- kostyum ko'ylakdan iborat kiyimlar; 3- ichki kiyimlar; 4- bosh kiyim; 5- maxsus kiyim va hakoza.

4-razryad - vazifasi jihatidan o'xshash va model-konstruktiv yechimi jihatidan bir-biriga yaqin buyumlarning gruppaxillari majmui: 1- palto;2- kalta palto; .... 5- ko'ylak;..... 7- erkaklar ko'ylagi va hakoza.

5-razryad - xom ashyo to'ri bo'yicha kenja gruppaxillari: 1- ip gazlamalar; 2- zigir tolasi va aralash toladan tukilgan gazlamalar; 3- shoyilar, sintetik va aralash tolalardan tukilgan gazlamalar va hakoza.

6 – razryad - buyumning jins-yosh belgilari bo'yicha xillari: 1- erkaklar uchun; 2-ayollar uchun; 3-o'g'il bolalar uchun va hakoza.

7-razryaddan 10 razryadgacha xillararo klassifikasiya.

Kiyimni loyhalash talablar programmasini tuzishdan boshlanadi. Talablar ikki gruppaga ajratiladi.

1. Iste'molchi (matlubotchilar) talablari.

2. Sanoat-ekonomika nuqtai nazaridan qo'yiladigan talablar.

Birinchi gruppaga ekspluatasion, estetik, gigiyenik talablar, kiyimning tovarlik sifatiga, ko'rinishiga oid va boshqa talablar kiradi .

**REFERENCES :**

1.X. X. Kamilova, N. K. Hamrayeva. Kiyimni konstruksiyalash asoslari— T.: «Moliya», 2003. 2.S.U.Po'latova. Kiyimlarni konstruksiyalash asoslari.— T., 2001.